

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОҲ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF LAW RESEARCH
SPECIAL ISSUE-3



ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№SI-3 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2023-SI-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'affor

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Artur Gambaryan

yuridik fanlar doktori, professor (Armaniston)

Yosuke Shamoto

yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННЫЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Xusanov Ozod Tillabayevich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Selimanova Svetlana Mixaylovna

yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Peshkova Xristina Vyacheslavovna

yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)

Sung Un Lee

yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Ruziyev Rustam Jabborovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Borotov Mirodiljon Xomudjonovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Shomuxamedova Zamira Shoislamovna

yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)

Ahmad Issa Altweissi

yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Egamberdiyev Eminjon

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.

Kanton Federal sud markazi (AQSH)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna

yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Gasanov Mixail Yuriyevich

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Sattorova Gulnoza Djurakulovna

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora

yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Denisov Gleb

yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Skripnikov Nikolay Kuzmich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salayev Nodirbek Saparbayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farhod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirazov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govxerjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)


1. Мухамедов Ҳайдарали Мелиевич АНТИК ДУНЁ МАМЛАКАТЛАРИ ҲУҚУҚИ.....	5
2. Turgunov Murodjon Tursunbayevich ЎРТА АСРЛАРДАГИ МУСУЛМОН ВА ҒАРБ ФАЛСАФАСИНИНГ РИВОЖЛАНИШИГА ФОРОБИЙ ҒОЯЛАРИНИНГ ТАЪСИРИ.....	16
3. Ибрагимова Мухлиса Паридуновна ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТЧИЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ МАҚОМИДА ЖАВОБГАРЛИК ВА ҲУҚУҚЛАРИНИНГ ҲИМОЯ ҚИЛИНИШИ МАСАЛАЛАРИНИНГ НАЗАРИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ.....	23
4. Ubaydullayev Abror Qutilla o‘g‘li ISLOM MOLIYASINI HUQUQIY VA TASHKILY JIHATDAN TARTIBGA SOLUVCHI XALQARO INSTITUTLARINING SHAKLLANISH TARIXI VA EVOLUTSIYASI.....	29
5. Yuldoshbekov Avazbek Alisher o‘g‘li SOLIQ MASALAHATINI AMALGA OSHIRISH PRINSIPLARI VA ULARNING TURLARI.....	35
6. Ашурова Наргиза Аъзамовна ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИДА ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ МУЛКИЙ АСОСЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ РЕЖИМИ ТАВСИФИ.....	43
7. Амангельды Айжан Амангельдыкызы ПРАВОПРЕЕМСТВО ПРАВ В СФЕРЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ.....	54
8. Чориева Хуршидабону Хуррам кизи ВАСИЙЛИК ВА ҲОМИЙЛИК БЎЙИЧА ФАОЛИЯТНИ ТАШКИЛ ЭТИШ.....	74
9. Эшимбетова Дармон Уразбаевна КОРПОРАТИВ НИЗОЛАРНИ СУДДА ҲАЛ ҚИЛИШНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ: МУАММО ВА ЕЧИМ.....	82
10. Казакбаев Туулбай Каримбаевич КОРПОРАТИВ ШАРТНОМА ШАКЛИ ВА УНИ ТУЗИШ ШАРТЛАРИ.....	90
11. Rasulov Bekzod Boymuratovich QURILISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH – BARQAROR RIVOJLANISH MEZONI.....	98
12. Умарова Барно Акбутаевна ОТА-ОНАЛИК ҲУҚУҚИДАН МАХРУМ ҚИЛИШНИНГ АЙРИМ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ.....	107



Rasulov Bekzod Boymuratovich,
Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti
dotsenti vazifasini bajaruvchi,
E-mail: lawstroy83@mail.ru

QURILISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH – BARQAROR RIVOJLANISH MEZONI

For citation: Rasulov Bekzod Boymuratovich. LEGAL REGULATION OF CONSTRUCTION IS A CRITERION OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT. Journal of Law Research. 2023, Special issue 3, pp. 98-106

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10505578>

ANNOTATSIYA

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar rivoji va samaradorligi huquqiy tartibga solish va ta'sirchan huquqiy mexanizmlarni yaratishga bog'liq. Qurilish sohasidagi qonunchilik va uni tadqiq etish orqali huquqiy mexanizmni yanada takomillashtirish, soha vakillari va fuqarolar uchun qo'lay va tushunarli tarzda bayon qilinishi bugungi kundagi islohotlarimizning muhim talablaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada qurilish sohasidagi qonunchilik, undagi muammolar va xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinib, xulosa va takliflar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Qurilish, qurilish-montaj, qurilish qonunchiligi, fuqarolik qonunchiligi, shartnomaviy munosabatlar, qurilish pudrati, qurilish kodeksi, huquqiy tartibga solish, qurilishga ro'xsat berish tartib-taomillari, qurilish reglamentlari.

Расулов Бекзод Боймуратович,
Исполняющий обязанности доцента Самаркандского
государственного архитектурно-строительного университета,
E-mail: lawstroy83@mail.ru

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СТРОИТЕЛЬСТВА – КРИТЕРИЙ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

АННОТАЦИЯ

Развитие и эффективность проводимых в нашей стране реформ зависят от создания правового регулирования и эффективных правовых механизмов. Законодательство в сфере строительства и дальнейшее совершенствование правового механизма путем его исследования, разъяснения в удобной и понятной форме для представителей отрасли и граждан – одно из важных требований наших реформ сегодня. В данной статье анализируется законодательство в сфере строительства, его проблемы и опыт зарубежных стран.

Ключевые слова: Строительство, строительно-монтажные работы, строительное законодательство, гражданское законодательство, договорные отношения, строительный договор, строительный кодекс, правовые нормы, порядок получения разрешений на строительство, правила строительства.

Rasulov Bekzod Boymuratovich,
Acting Associate Professor of Samarkand State University
of Architecture and Construction,
E-mail: lawstroy83@mail.ru

LEGAL REGULATION OF CONSTRUCTION IS A CRITERION OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT

ANNOTATION

The development and effectiveness of the reforms carried out in our country depend on the creation of legal regulations and effective legal mechanisms. Legislation in the field of construction and further improvement of the legal mechanism by researching it, explaining it in a convenient and understandable way for representatives of the field and citizens is one of the important requirements of our reforms today. This article analyzes the legislation in the field of construction, its problems and the experience of foreign countries.

Keywords: Construction, construction-assembly, construction legislation, civil legislation, contractual relations, construction contract, building code, legal regulations, construction permit procedures, construction regulations.

Kirish.

Qurilish sohasi mamlakat iqtisodiyotining eng muhim tarmoqlaridan biri sifatida muntazam huquqiy islohotlar asosida rivojlanmoqda. Ushbu sohani huquqiy tartibga solish uning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qurilish sohasini rivojlantirish faqatgina uni texnik normallashtirishdan iborat emas, balki sohaga oid me‘yoriy-huquqiy bazani takomillashtirishni talab qiladi. Chunki bu soha ko‘pgina sohalarga o‘xshab tor doiradagi ijtimoiy munosabatlardan iborat emas va yagona kodekslashgan qonun bilan tartibga solinmaydi. Ya‘ni, qurilishga oid huquqiy munosabatlar deganda fuqarolik, yer, soliq, tadbirkorlik, mehnatga oid, ekologiya, uy-joy, shaharsozlik, loyihalash, qurilish, qurilish-montaj, qurilish materiallari, konstruksiyalari va buyumlarini ishlab chiqarishga oid ijtimoiy munosabatlar majmuini tushunamiz. Munosabatlarning turli-tumanligidan ko‘rinib turibdiki, ular bir qancha qonunchilik normalari bilan tartibga solinadi.

Qurilish sohasidagi qonunchilik tizimining asosiy muammolaridan biri – sohaga oid qonunchilikning yagona qonunga birlashtirish imkoniyatining yo‘qligi. Ya‘ni, mazkur soha qonunchiligini kodifikastyalashdagi muammolar soha vakillarining qonunchilikni o‘rganishlarida qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Masalaning ilmiy jihatlariga e‘tibor qaratsak, qurilish qonunchiligi mamlakatimiz huquqiy tadqiqotlarida eng kam tadqiq etilgan sohalardan biri hisoblanadi.

Qurilish qonunchiligini keng talqin qilish orqali mamlakatimizda qurilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tizimlashtirish, qurilish va qurilish montaj ishlarini loyihalash, qurilishga ro‘xsat berish, qurilish ishlarini qabul qilishni rasmiylashtirish, qurilish materiallari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish bilan bog‘liq bir butun faoliyatni huquqiy tartibga solish va tadqiq etish imkoniyati paydo bo‘ladi.

So‘nggi yillarda sohaga doir qonunchilikning takomillashishi va raqamlashtirish siyosatining keng targ‘ib qilinishi natijasida qurilishda adolat va shaffof tizim yaratishga, boshqaruvda inson omilining kamaytirilishiga harakat qilinmoqda. Bu o‘z navbatida sohaning zamon talablari darajasida rivojlanishiga xizmat qiladi.

Oxirgi yillarda olib borilgan islohotlar natijasida qonunchilik birmuncha takomillashtirildi. Sohada faoliyat yurituvchi boshqaruv organlari, ro‘xsat beruvchi organlarning huquq va majburiyatlari, vakolatlari doirasi qayta ko‘rib chiqildi. Faoliyatga ro‘xsat berish tartib-taomillari soddalashtirildi. Raqamlashtirish orqali inson omilining sezilarli darajada kamayishiga erishildi.

Fuqarolarga qurilayotgan ob‘ektlar to‘g‘risida mustaqil ravishda axborot olish, noqonuniy qurilishlarni aniqlash, qurilish ob‘ektlaridagi qoidabuzarliklarni qayd etish va ularni qurilish

sohasidagi nazorat bo'yicha vakolatli organlarga yuborish imkonini beruvchi «Ogoh fuqaro» tizimi test rejimida ishga tushirildi [1].

Sohani zamon talablari darajasida rivojlantirish maqsadida yuksak xorijiy tajribalarni joriy etish, qurilishning me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish borasida zarur huquqiy islohotlar olib borilmoqda. Prezidentimizning farmoniga asosan 2028-yilga qadar qurilishning xalqaro standartlari (Yevrokodlar, ABC kodlar, Britaniya qurilish standartlari, Yaponiya, Xitoy, va Korea qurilish standartlari, Rossiyaning SNPlari kabilar)ni mamlakatimiz qurilish sanoatida qo'llash bo'yicha zaruriy topshiriqlar berildi. Bu albatta, huquqiy mexanizmni ham takomillashtirishni talab etadi.

Qurilish qonunchiligi me'yoriy materiallarning katta hajmi bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, huquqiy normalarning o'zi texnik normalar bilan chambarchas bog'liqdir. Ular ko'pincha individual holatda yagona me'yoriy hujjatlarga kiritiladi [2].

Qurilish biznesining bir qancha jabhalarini tartibga soluvchi qonunchilik, jumladan, shartnoma huquqi, mehnat va mehnat qonunchiligi va atrof-muhit qonuni qurilish huquqi deb nomlanadi. Bundan tashqari, qurilish kompaniyalari o'z loyihalari belgilangan muddatlarda, byudjet doirasida va barcha tegishli qonunlar va qoidalarga muvofiq bajarilishini kafolatlash uchun murakkab qoidalar va qonuniy talablar to'plamidan foydalanishlari kerak.[7]

Qurilish qonunchiligining asosi, qurilish faoliyatining huquqiy rejimining asosiy tamoyillarini va qurilish jarayoni ishtirokchilarining huquqiy maqomining asosiy xususiyatlarini belgilaydigan muayyan qonun hujjatlari bilan shakllantiriladi.

Qurilish faoliyatini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish yo'llari barcha qurilish obyektlari faoliyatining ajralmas sharti bo'lgan tadbirkorlikning huquqiy jihatlarini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liq.

Mamlakatimizda tadbirkorlik, xususan, uning tarmoqlaridan biri hisoblangan qurilish sohasida qonunchilik tizimi takomillashtirilgan bo'lsa-da, normativ hujjatlarning turli-tumanligi hamda tadbirkorlik sub'ektlarining ko'pgina qonun hujjatlaridan xabardor emasligi turli muammolarni keltirib chiqarmoqda. Buning natijasida fuqarolar va tadbirkorlik sub'ektlarining zarar ko'rishi yoki muammoli vaziyatlarga tushib qolishiga sabab bo'lmoqda. Buni mazkur sohaga oid murojaatlarning soniga qarab ham tushunish mumkin. 2023-yilning 3-choragi davomida Birgina Qurilish vazirligining o'ziga 3355 ta [3] murojaatlar kelib tushgan. 2023 yil III-chorakda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasidan Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligiga tushgan murojaatlar soni 11437 tani tashkil etgan [4]. Bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan kam sonni tashkil etsa-da, hali sohada tushunmovchiliklar ko'pligini anglatadi.

Mana shu jihatlarining o'zi ham tizimda qonunchilikni qo'llash amaliyoti xususiy sub'ektlar o'rtasida yetarli darajada emasligini anglatadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi.

Jahonning ko'plab mamlakatlarida qurilish sohasidagi munosabatlar turli qonunlar bilan tartibga solinishini ko'ramiz. Jumladan, Belgiya qonunchiligida qurilish shartnomalari, shu jumladan, qurilish ishlarini yetkazib berish bo'yicha shartnomalar umumiy shartnoma qonunchiligi qoidalari bilan birgalikda (eski Belgiya Fuqarolik Kodeksining 1101-1369-moddalari bilan 2023-yil 1-yanvargacha tuzilgan shartnomalar bilan tartibga solinadi) 2023 yil 1 yanvardan keyin tuzilgan shartnomalar uchun yangi Belgiya Fuqarolik Kodeksining 5-kitobi) asosan Belgiya Fuqarolik Kodeksining 1787-moddasi va keyingi moddalari bilan tartibga solinadi. Masalan, oxirgi modda pudratchi yoki ishlab chiquvchi va me'morning javobgarligini tartibga soladi, shuningdek, shartnomani bir tomonlama bekor qilish holatlari bilan bog'liq talablarni nazarda tutadi.

Belgiya qonunchiligi ishni loyihalash bo'yicha shartnomalar bilan alohida shug'ullanmaydi va shuning uchun umuman olganda, loyihalash ishlariga umumiy shartnoma huquqi qoidalari qo'llaniladi. Shunga qaramay, Belgiya Fuqarolik kodeksida me'mor va uning direktori o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi bir qator moddalar mavjud.

Bosniya-Gersegovinada majburiyatlar to'g'risidagi qonun qurilish ishlarini loyihalash yoki bajarish bo'yicha shartnomalarni tartibga soluvchi qonunchilikning asosiy manbai hisoblanadi. Majburiyatlar to'g'risidagi qonun qoidalari ushbu mamlakatdagi barcha shartnoma majburiyatlarini tartibga soladi.

Xorvatiya majburiyatlari to'g'risidagi qonun qurilish ishlarini bajarish bo'yicha shartnomalarni (qurilish shartnomalari), shuningdek, loyihalash bo'yicha shartnomalarni tartibga soladi. Ushbu davlatda qurilishga oid shartnomalar xizmat ko'rsatish shartnomalari hisoblanadi. Bundan tashqari, 1977 yilda qabul qilingan qurilish amaliyoti kodeksi odatiy huquq manbai sifatida hali ham amal qiladi va Xorvatiya majburiyatlari to'g'risidagi qonunning umumiy tamoyillariga muvofiq, agar shartnoma tuzgan tomonlar (har ikkalasi ham tijorat tashkiloti bo'lsa) buni istisno qilmagan yoki xususiy shaxslar shartnoma tuzgan, tomonlar uni qo'llashga rozi bo'lgan taqdirda qo'llaniladi. Biroq, 1977 yildan beri texnik va shartnomaviy o'zgarishlar tufayli ushbu amaliyot kodeksi o'z ahamiyatini yo'qotdi va amaldagi qonunchilik va amaliyotni hisobga olgan holda yangi kodeks tayyorlanmoqda.

Chexiya Respublikasida qurilish huquqi bir nechta asosiy huquq organlaridan iborat:

Fuqarolik, ma'muriy, atrof-muhitga oid, jinoyat qonunchiligi kabi qonun hujjatlari orqali tartibga solinadi. Jumladan, 89/2012-sonli qonun, Fuqarolik kodeksi, 183/2006-sonli qonun, Qurilish to'g'risidagi qonun, № 184/2006, Ekspropriatsiya to'g'risidagi qonun, № 416/2009, Infratuzilma to'g'risidagi qonun, № 200/1994, Yer yuzasini o'lchash xizmatlari to'g'risidagi qonun, 114/1992-sonli qonun, Tabiat va landshaftni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun, 40/2009-sonli qonun, Jinoyat kodeksi, 418/2011-son, Yuridik shaxslarning jinoiy javobgarligi to'g'risida qonun.

Turli xil nizomlar va quyi qonun hujjatlari (masalan, buyruqlar, vazirlik va boshqa turdagi normativ hujjatlar). Vazirlik qarorlari: № 268/2009 - qurilish uchun texnik talablar bilan bog'liq, № 499/2006 - binolarning hujjatlariga tegishli, № 501/2006 - erdan foydalanish uchun umumiy talablar bilan bog'liq, № 500/2006 – analitik materiallarni rejalashtirish, rejalashtirish hujjatlari va rejalashtirish faoliyatining dalillari bilan bog'liq, № 503/2006 – yerga ruxsatnomalar, rejalashtirish chora-tadbirlari va qurilish kodeksini batafsil tartibga solish bilan bog'liq; № 146/2008 – transport infratuzilmasi loyiha hujjatlarining hajmi va mazmuniga taalluqli hamda Praga munitsipaliteti qarorlari orqali huquqiy tartibga solinadi.

Daniyada qurilish huquqi asosan quyidagi huquq organlariga asoslanadi:

- Shartnoma huquqi – tomonlar o'rtasidagi kelishuvlar va kelishuvlarni tartibga soluvchi qonun

- Huquqiy huquqbuzarliklar to'g'risidagi qonun – shartnoma majburiyatlaridan kelib chiqmagan fuqarolik huquqbuzarliklarini bartaraf etish va ularni bartaraf etish choralarini ko'ruvchi qonun

- Sud amaliyoti – Daniya milliy sudlari va Daniya qurilish va qurilish arbitraj kengashining qarorlari

- Standart shakldagi shartnomalar:

- o AB 18 - Qurilish va muhandislik sohasida ishlarni va materiallarni ta'minlash uchun umumiy shartlar.

- o ABT 18 – Kalit taslim shartnomalar uchun umumiy shartlar.

- o ABR 18 - Konsalting xizmatlari uchun umumiy shartlar.

- o AB Consumer - Iste'molchilarga bino ichidagi ishlarni taqdim etishning umumiy shartlari.

(Ish beruvchining professional bo'lmagan tomon ekanligini hisobga oladigan standart shakldagi shartnoma) [5].

Fransiya huquq tizimi konstitutsiyaviy qonunlar, kodekslari va statutlarga asoslanadi. Xususan, qurilish huquqi Fransiya Fuqarolik Kodeksida va Fransiyaning Uy-joy va qurilish kodeksida mavjud.

Quriladigan binodan foydalanishga qarab, mehnat qonuni yoki atrof-muhit to'g'risidagi qonun kabi boshqa turdagi qonunlar ham qo'llanilishi mumkin.

Germaniya qurilish shartnomasi taraflar o'rtasidagi moddiy huquqiy munosabatlarni ikkita qonun organi tartibga soladi:

1. Germaniya Fuqarolik Kodeksi (BGB) - ish va xizmatlar bo'yicha shartnomalarga nisbatan qo'llaniladigan qonuniy qoidalar Germaniya Fuqarolik Kodeksining 631-650v bo'limlarida keltirilgan.

2. Qurilish shartnomasi bo'yicha tartib-qoidalar B qismi (VOB/B) - Fuqarolik kodeksining qoidalaridan farqli o'laroq, ushbu qonunchilik bazasida mavjud bo'lgan qoidalar qonun xarakteriga ega emas, balki umumiy shartlar hisoblanadi.

Fuqarolik Kodeksining qoidalari avtomatik ravishda qo'llanilishi bilan birga, VOB/B qo'llanilishi tomonlar o'rtasidagi shartnomaning ajralmas qismi sifatida aniq kelishilgan bo'lishi kerak. Biroq, oddiy Fuqarolik kodeksi shartnomasi murakkab qurilish loyihalari uchun kamdan-kam qo'llaniladi. 2018 yil 1 yanvardan boshlab Fuqarolik Kodeksida qurilish shartnomasi, iste'molchi qurilish shartnomasi, arxitektor va muhandislik shartnomasi va qurilishni ishlab chiquvchi shartnoma belgilangan va qisman ushbu shartnomalarning har biri uchun alohida qoidalar nazarda tutilgan. Germaniyada ushbu davrda birinchi marta qurilish shartnomasi huquqi qurilish jarayonining murakkabligi va uning o'ziga xos talablarini hisobga olgan holda alohida huquq sohasi sifatida kodlashtirildi.

Mamlakatimizda qurilish sohasida Germaniya huquqiy amaliyotidan farqli ravishda aynan Fuqarolik Kodeksida nazarda tutilgan pudrat, oldi-sotdi, ijara va boshqa shartnomalarga oid qoidalar qo'llaniladi.

AQShda hukumatning uchta tarmog'i mavjud: sud, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi. Har bir filial loyihalash va qurilish shartnomalarini tartibga soluvchi qonunchilikka o'z hissasini qo'shadi. Qurilish loyihasi, boshqa shartlar qatorida, loyihaning xususiy yoki davlatga qarashli ekanligiga, loyiha joylashgan yurisdiksiyaga va loyihaning tabiatiga qarab turli qonunlarga bo'ysunishi mumkin[5].

AQSh Uy-joy va shaharsozlik departamenti federal uy-joy standartlari dasturini nazorat qiladi. Sifatsiz uylarni sotish yoki ijaraga berish taqiqlanadi. Biroq, qurilish faoliyatini bevosita tartibga solish deyarli butunlay shahar va mintaqaviy darajada jamlangan[6].

Kanadada qurilish ishlariga tegishli bo'lgan huquq sohalari quyidagilardan iborat:

1. Shartnoma huquqi - tomonlar o'rtasidagi kelishuvlarni tartibga soluvchi qonun.
2. Huquq to'g'risidagi qonun - Shartnoma majburiyatlaridan kelib chiqmagan fuqarolik huquqbuzarliklarini ko'rib chiqadigan va ularni bartaraf etish choralarini ko'rsatadigan qonun.
3. Qonunchilik - Qurilish operatsiyalarini amalga oshirish va infratuzilmani etkazib berishni tartibga soluvchi turli xil nizomlar.

4. Qonunda belgilangan majburiyatni buzish - qonun hujjatlarida belgilangan majburiyatlarni bajarmaslik yoki majburiyatlarni bajarmaslik. Masalan, jabrlangan shaxs huquqbuzarlik natijasida shikastlangan bo'lsa (agar qonunning o'zida alohida istisno qilinmagan bo'lsa) fuqarolik da'vosini qo'yishi mumkin.

5. Restitutsiya qonuni - Bir umumiy funktsiyaga ega bo'lgan himoya vositalarini tayinlash bilan bog'liq huquq sohasi: da'vogarga etkazilgan zararni qoplashdan ko'ra, sudlanuvchini daromaddan mahrum qilish[5].

Qurilish ishlarini loyihalash va bajarish bo'yicha shartnomalarni tartibga soluvchi asosiy qonun XXRning Shartnoma to'g'risidagi qonunidir (1999). Shartnoma to'g'risidagi qonun va uning Oliy xalq sudi tomonidan talqini shartnoma huquqining barcha jihatlariga taalluqli qoidalarni, shu jumladan shartnomaning quyidagi asosiy tamoyillarini belgilaydi:

- Tenglik va adolat: har bir tomonning huquq va majburiyatlari teng asosda belgilanishi kerak, masalan, riskni o'zaro taqsimlash va majburiyatlarni adolatli belgilash.
- Shartnoma erkinligi: Har bir tomon o'z ixtiyori bilan shartnoma tuzishga haqli va boshqa tomonlarning noqonuniy aralashuviga duchor bo'lmaydi.
- Yaxshi niyat: Shartnoma tuzishda yolg'onning hech qanday elementi bo'lmasligi kerak. Huquq va majburiyatlarni amalga oshirishda har bir tomon vijdonan harakat qilishi kerak.
- Davlat siyosati va jamoat manfaatlari: Shartnoma tuzishda va uni amalga oshirishda tomonlar davlat siyosatini hurmat qilishi va ijtimoiy-iqtisodiy tartibni buzmasligi yoki jamoat manfaatlariga zarar yetkazmasligi kerak[5].

Bu o'rinda Xitoy Xalq Respublikasida Shartnomalar to'g'risida qonun mavjudligini, shuningdek, sud hujjatlarining normativ huquqiy hujjat kabi qo'llanishini ko'ramiz.

Osiyo mamlakatlaridan Gonkong umumiy huquqiy qurilish bilan ajralib turadi. Ya'ni ushbu mamlakatda qonun sudyalari qarorlaridan kelib chiqadi va sudlar tomonidan ishlab chiqiladi. Gonkongda qurilish xavfsizligi va qurilish ishlari bilan bog'liq masalalarni tartibga soluvchi qonunchilik ham mavjud. Gonkongda qurilish huquqi beshta asosiy huquq organidan iborat:

- Shartnoma huquqi – tomonlar o'rtasidagi kelishuvlarni tartibga soluvchi.
- Huquqbuzarliklar – qurilish jarayonida odamlarga va/yoki ularning mulkiy va iqtisodiy manfaatlariga shartnoma kabi boshqa munosabatlar doirasidan tashqarida ta'sir ko'rsatadigan hodisalar ro'y berishi mumkin. Shikoyat huquqi - bu shartnoma majburiyatlaridan kelib chiqmagan fuqarolik huquqbuzarliklarini ko'rib chiqadigan va ularni bartaraf etish choralarini ko'radigan qonun.
- Qonunchilik – qurilish ishlarini amalga oshirishni tartibga soluvchi turli xil qarorlar va quyi qonun hujjatlari (ya'ni normativ hujjatlar).
- Restitutsiya to'g'risidagi qonun - huquqning bu sohasi bir umumiy funktsiyaga ega bo'lgan himoya vositalarini tayinlash bilan bog'liq - da'vogarga etkazilgan zararni qoplashdan ko'ra, sudlanuvchini daromaddan mahrum qilish. Kvant meruit (loyiq bo'lgan miqdor) va/yoki asossiz boyitishning oldini olish asosida da'volar qo'yilayotganini ko'rish odatiy hol emas.
- Jinoyat huquqi – jinoiy faoliyatni tashkil etuvchi harakat va harakatsizlik uchun jazo choralari qo'llaniladi.[5]

Sanoatga tegishli qonun va qoidalar Singapurda qurilish biznesining umumiy shartlarini tartibga soluvchi asosiy hujjat sifatida qo'llaniladi. U mamlakatda qurilish loyihasini qurish uchun zarur bo'lgan talab qilinadigan standartni belgilaydi, bu qurilish rejasini tasdiqlashni va har qanday binoni qurish uchun zarur bo'lgan ruxsatnomalarni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, u biznes muhitidagi barcha asosiy manfaatdor tomonlarning roli va mas'uliyatini belgilaydi, masalan, ishlab chiquvchilar, malakali shaxslar, sayt nazoratchilari va quruvchilar va boshqalar.[8]

Yaponiyada loyihalash va qurilish ishlari bo'yicha shartnomalarni tartibga soluvchi asosiy qonunlar quyidagilardan iborat:

- Fuqarolik kodeksi – Ushbu qonun har qanday shartnomalarga, jumladan, loyihalash va qurilish shartnomalariga hamda tomonlar o'rtasidagi tegishli kelishuvlarga nisbatan qo'llaniladigan umumiy qoidalarni belgilaydi;
- Qurilish standartlari to'g'risidagi qonun (BSA) - Bu hujjat erdan foydalanish talablari va qurilish standartlarini belgilaydi;
- Qurilish biznesi to'g'risidagi qonun (CBA) - Bu hujjat qurilish biznesi operatorlariga qo'yiladigan talablarni belgilaydi[5].

Tailand Fuqarolik va tijorat kodeksi odatda qurilish ishlari bo'yicha qurilish shartnomalarini, shu jumladan muayyan shartnomalarni tartibga soluvchi va tartibga soluvchi qonunning asosiy manbai sifatida qaraladi. Uning qoidalari qurilish shartnomalarini tuzayotgan pudratchi tomonlarning majburiyatlari va majburiyatlarini belgilaydi.

Bundan tashqari, Binolarni nazorat qilish to'g'risidagi qonun B.E. 2522 (1979) va unga qo'shilgan vazirlik qoidalari (birgalikda, BCA) qurilish uchun ruxsat olish uchun ariza berish jarayonini tartibga soluvchi qonunning o'ziga xos manbalari, binoning qurilishiga cheklovlar, xavfsizlik, yong'indan himoya qilish va boshqa turli jihatlarni belgilaydi.

Birlashgan Arab Amirliklarida Abu-Dabi huquqi fuqarolik huquqi tizimiga asoslanadi, ya'ni qonun konstitutsiya, kodekslashgan qonunlar va nizomlar orqali ishlab chiqilgan. Sudyalarning qarorlariga murojaat qilish mumkin, ammo sudyaning qarori umumiy huquq tizimida bo'lgani kabi qonun deb hisoblanmaydi.

Bundan tashqari, Abu Dabi Birlashgan Arab Amirliklarini o'z ichiga olgan amirliklardan biri bo'lganligi sababli, u Abu Dabi Amirligiga xos qonunlar va barcha amirliklarga tegishli qonunlar (federal qonunlar deb ataladi) birikmasiga ega. Qurilish huquqida huquqning asosiy manbalari quyidagilardir:

- Fuqarolik bitimlari to'g'risidagi federal qonun (shu jumladan qurilish va maslahat shartnomalariga tegishli bo'lgan muqavala (ish) shartnomalari bo'limi) - Fuqarolik kodeksi (Fuqarolik bitimlari to'g'risidagi qonun) [Federal qonun 1985 yil 5-son (o'zgartirishlar bilan)]

• Bino va qurilishga oid Abu-Dabining o'ziga xos qonuni – Qurilish to'g'risidagi qonun [AD qonuni № 4, 1983 (o'zgartirilgan)].

Huquqning ushbu ikkita asosiy manbasiga qo'shimcha ravishda, faqat qurilish ishlari bo'yicha shartnomalar bilan bog'liq bo'lmagan boshqa ko'plab federal va Abu-Dabi qonunlari mavjud, ammo ular ko'pincha ushbu shartnomalarga ta'sir qiladi. Masalan, bandlik masalalarini tartibga soluvchi Mehnat qonuni [1980 yildagi 8-sonli Federal qonun (o'zgartirishlar bilan)].

Qurilish qoidalari va standartlarini qabul qilish bo'yicha 2001 yil 125-sonli ma'muriy qaror (2021 yil 37-sonli ma'muriy qaror bilan o'zgartirilgan) Dubay munitsipaliteti tomonidan boshqariladigan hududlarda qurilishni qanday qurish haqida batafsil texnik ma'lumot beradi. Shunga o'xshash standartlar JAFZA va TECOM hududlarida qo'llaniladi.

Nigeriyada dizayn va qurilish ishlarini tartibga soluvchi bir qator mahalliy qoidalar mavjud. Ushbu qoidalar mulkdorlar/ishlab chiquvchilar, arxitektorlar va pudratchilar qurilish ishlarini olib borishda rioya qilishlari kerak bo'lgan loyihalar va qurilish standartlarini belgilaydi.

Standart shakllardan tashqari, qurilish shartnomalari Shahar va mintaqaviy rejalashtirish va rivojlanish (tuzatish) qonunlari Lagos shtatining jismoniy ruxsatnomasi to'g'risidagi, Lagos davlat qurilish nazorati agentligi qoidalari hamda Milliy qurilish kodeksidagi tegishli qonunlarning qoidalarga zid bo'lmasligi kerak.

Jahon tajribasidan ko'rinib turibdiki, qurilish sohasini tartibga solishga doir qonunchilikda umumiy o'xshashlik mavjud va bu o'xshashlik qurilish sohasidagi munosabatlar, eng avvalo, fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinishida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida ham qurilishni huquqiy tartibga soluvchi to'g'ridan-to'g'ri tegishli bo'lgan, shuningdek boshqa ijtimoiy munosabatlar uchun ham qo'llaniladigan huquqiy tartibga solish usullarining belgilab qo'yilganligini ko'ramiz. Xususan, mulkchilik to'g'risidagi, majburiyatlar to'g'risidagi yoki shartnomalar to'g'risidagi qoidalar umumiy talablarni belgilab bergan[9-10]. Kodeksning faqatgina pudrat shartnomalariga oid qoidalarida aynan qurilish sohasiga doir xususiy talablar o'z aksini topganligini ko'rish mumkin.

Mamlakatimiz qonunchiligida fuqarolik qonunchiligidan tashqari ma'muriy, mehnat, soliq, yer, uy-joy, mulkchilik to'g'risida, litsenziyalashtirish to'g'risida, investesiyalar to'g'risida va boshqa qonunlar vositasida qurilish sohasi huquqiy tartibga solinib kelinadi.

Qurilish to'g'risidagi qonun ijtimoiy munosabatlarning alohida turini tartibga soladi, bu ularning mazmuni va ahamiyati jihatidan alohida huquqiy tartibga solishni talab qiladi. Qurilish qonunchiligini huquqiy tartibga solish qurilish huquqi subyektlarining huquq va majburiyatlarining paydo bo'lishi, o'zgartirilishi va bekor qilinishining maxsus tartibi bilan ajralib turadi. Qurilish to'g'risidagi qonunning o'ziga xos xususiyati maxsus tartibga solish rejimida ifodalanadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, qurilish to'g'risidagi qonun bilan tartibga solinadigan jamoat munosabatlarida ham qonunchilik, ham xususiy huquqni huquqiy tartibga solish usullari birlashtiriladi. Faqat hajm jihatidan ahamiyatsiz bo'lgan individual munosabatlar dispozitiv yoki imperativ usul bilan tartibga solinadi.

Xususan, qurilish ishlarini olib borishda, qurilish pudrati shartnomasi taraflari muhim talablar bilan cheklanadi, bu davlat ekspertizasidan o'tgan loyihaning mavjudligi, davlat qurilish nazorati organlari tomonidan berilgan qurilish ruxsatnomasi, pudrat qilingan qurilish ishlarini bajarishda davlat qurilish nazorati talablariga muvofiqligi, qurilish pudrati shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni tegishli ravishda bajarish davlat ekspertizasi o'tkazilishiga bog'liq bo'ladi. Ushbu jarayonlar O'zbekiston Respublikasi Shaharsozlik Kodeksi va hukumat qororlari bilan tartibga solinadi.

Xulosa va takliflar.

Qurilish bo'yicha mutaxassislar qurilish qonunchiligining asosiy tushunchalarini o'rganish va eng so'nggi huquqiy o'zgarishlarni kuzatib borish orqali nizolar, kechikishlar va salbiy huquqiy va moliyaviy oqibatlar xavfini kamaytirishi mumkin. Ular, shuningdek, ish joyida adolat va xavfsizlikni rag'batlantirishi, o'z loyihalarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishi va barqaror jamiyat uchun harakat qilishi mumkin. Shu sababli, qurilish qonunchiligi qurilish sektorining muvaffaqiyati va uzoq umr ko'rishini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega, desak xato bo'lmaydi.[7]

Mazkur jarayonda huquqni qo'llashning ayrim murakkabliklari paydo bo'ladi. Ya'ni ayni bir jarayon bir nechta qonun hujjatlari vositasida tartibga solinishi ularni talqin qilishda turli yondashuvlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli ushbu masalada quyidagi taklif va mulohazalarni aytish o'rinli deb bilamiz:

1. Qurilish sohasidagi qonunchilik dunyo amaliyotida ham, mamlakatimiz huquqiy amaliyotida ham o'ziga xos huquqiy va ijtimoiy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Qurilish qonunchiligi bir vaqtning o'zida fuqarolik, mulkchilik, tadbirkorlik, shaharsozlik, ma'muriy, mehnat, yer, ekologik va boshqa qonunchilik normalarini qo'llash orqali ifodalanadi. Shu sababli ushbu sohaga oid qonunchilikni kodekslashtirish murakkab jarayon hisoblanadi.

2. Qurilish jarayonini tashkil etishning barcha bosqichlari uchun yagona talablarni belgilab beradigan alohida reglament ishlab chiqilishi lozim. Chunki, hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan Vazirlar Mahkamasining 200-son qarori bilan tasdiqlangan Reglamentlarda sohada davlat xizmatlari ko'rsatish bilan bog'liq jihatlar qamrab olingan. Biz taklif etayotgan hujjatni qabul qilish orqali qurilishni loyihalash, qurilishga ro'xsat berish, qurilish ishlarini amalga oshirish, qurilishni nazorat qilish, tugallangan qurilish va qurilish montaj ishlarini qabul qilish/topshirish, qurilishga doir nojo'ya harakatlar yoki majburiyatlarni bajarmaslik oqibatlari yagona hujjatda aks ettirilib, ayni shu hujjatning o'zida boshqa qonun hujjatlariga havola etiladigan munosabatlar ham aniq ko'rsatib qo'yiladi. Ushbu Reglament kodekslashgan qonunlar va o'zidan yuqori huquqiy maqomga ega bo'lgan boshqa hujjatlarga zid bo'lmasligi belgilab qo'yilishi lozim bo'ladi.

3. Keng jamoatchilikka muhokamaga qo'yilgan va hozirga qadar qabul qilinmagan Qurilish Kodeksini qabul qilish va unda qurilishga oid qonunchilik normalarini markazlashtirish maqsadga muvofiq. Unda qurilishga oid ma'muriy munosabatlar, shartnomaviy munosabatlar, mehnatga oid munosabatlar, ekologiya, soliq hamda litsenziyalashtirishga oid munosabatlar blanket qilinishi yo'li bilan aks ettiriladi. Ya'ni, tadbirkorlik sub'ektlari va fuqarolar ayni bir munosabat bo'yicha bitta qonunni o'rganish orqali ma'lumotga ega bo'ladi.

4. Qurilish jarayonida huquqni qo'llashda noqonuniy hatti-harakatlar yoki shartnomaviy majburiyatlarni bajarmaslik, noqonuniy qurilishlar, tegishli ro'xsat olmay turib qurilish ishlarini amalga oshirganlik, qurilish loyihalari yoki loyiha-smeta hujjatlaridan chetga chiqish holatlari aniqlanganda ularni raqamli texnologiyalar orqali qayd etish amaliyotini joriy etish lozim. Bu orqali mamlakatimizda amalga oshirilayotgan "Shaffof qurilish" loyihasining yanada samarali ishlashiga erishish mumkin.

Mamlakatimizda qurilish sohasida ham ochiqlik siyosati yuritilar ekan, albatta ushbu sohadagi qonunchilik soha vakillari va keng jamoatchilik uchun tushunarli va aniq ifodalangan bo'lishi maqsadga muvofiq.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Furqat Yunusov. O'zbekistonda qurilish sohasi: islohotlar, rejalar va natijalar qanday? (Furqat Yunusov. The construction industry in Uzbekistan: what are the reforms, plans and results?) <https://strategy.uz/index.php?news=1477>
2. https://vuzlit.com/2323229/pravovoe_regulirovanie_stroitelnoy_deyatelnosti
3. 2022 va 2023 yillar III-chorakda O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi rahbariyati tomonidan qabul qilingan jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar vakillari, qo'rib chiqilgan murojaatlar to'g'risida ma'lumot. (In the III quarter of 2022 and 2023, the representatives of individuals and legal entities received by the leadership of the Ministry of Construction and Housing and Communal Economy of the Republic of Uzbekistan, information about the considered appeals) <https://mc.uz/uz/view-page/open-information>.
4. 2023 yil III-chorakda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual qabulxonasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligiga tushgan murojaatlar to'g'risida ma'lumot. (Information on applications received from the Virtual Reception of the President of the Republic of Uzbekistan to the Ministry of Construction and Housing and Communal Economy in the III quarter of 2023) <https://mc.uz/uz/view-page/open-information>.

5. <https://www.dlapiperrealworld.com/law/index.html?t=construction>
6. https://studme.org/174726/menedzhment/pravovye_osobennosti_stroitelnoy_deyatelnosti
7. <https://www.contractsounsel.com/b/construction-law>.
8. <https://www.constructionssingapore.com/construction-law-and-regulations/>.
9. Khamidov N. Conditions enabling the commission of some transnational organized crimes. – 2022.
10. Khamidov N. Peculiarities of Legal Error in the Criminal Law of Uzbekistan //The American Journal of Political Science Law and Criminology. – 2023. – Т. 5. – №. 08. – С. 91-95.



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF LAW RESEARCH
SPECIAL ISSUE-3

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000